

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISH METODIKASI

Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, islohlashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda tarbiyachining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligi, o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o'quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini topishga doir fikr mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim tashkiloti, zamonaviy yondashuv, innovatsiya, tarbiyalanuvchi hamda tarbiyachi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogic texnologiyalar.*

Tarbiyalanuvchilarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash bo'yicha farmoyish qabul qilindi.

XXI asr texnika va texnologiyalar asri. Bu zamonda yangiliksiz, izlanishsiz, yaratuvchanliksiz inson mustaqil individ sifatida hayotda o'z o'rniga ega bo'lolmaydi.

XXI asr texnika va texnologiyalar asri hisoblanadi. Bugungi kunda har bir oilada texnik qurilmalar – masalan, mobil telefonlari, televizor, kompyuter, planshet va boshqalar kundalik iste'molda keng qo'llanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, kichik yoshdagi bolalar kattalarga nisbatan bu qurilmalardan tez va oson foydalanishadi. Ammo, maqsadga yo'naltirilganlik darajasi juda oddiy. Shu ma'noda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini to'liq texnologiyalar bilan ta'minlanish bosqichiga o'tilmoqda.

Bu esa ta'limda ko'rgazmali qurollardan, zamonaviy texnologiyalar asosida foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar uchun o'yin dasturlarining bilimga qaratilgan turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, bugun barcha texnik vositalar bizning qo'limizdagi eng yaxshi qurol, bilimlar manbai hamda imkoniyatlar kalitidir. Faqat, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridanoq undan to'g'ri va ongli foydalanish, ma'naviyatimizni yuksaltirishga qaratilgan uzluksizlik va uzviylik asosidagi dasturlar yaratishga loqayd bo'lmasakgina bu hamkorlik porloq istiqbolga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning qiziqishi inobatga olingan holda hatto aniq bir yo'nalish bo'yicha ularni guruhlarga ajratish va ma'lum sohaga yo'naltirish mumkin. Alohida

guruh tashkil qilinishi yoshligidanoq ma'lum sohalarga qiziquvchan bolalar bilan ishlash maqsadini ham osonlashtiradi. Bunda bolalar ruhiyatiga, kayfiyati hamda qiziqishlariga hatto ularning bir xildagi kiygan kiyimlari ham ta'sir qilishi nazarda tutilsa, kichkintoylarda o'ziga bo'lgan ishonch, faxr tuyg'ulari yanada barqarorlashuvini yaqqol sezamiz. Masalan, bo'lajak vatanparvar bolajonlarning barchasi kichkintoy harbiylarga xos kiyimda bo'lishi o'zilariga ham katta zavq, mas'uliyat bag'ishlaydi.

Mutaxassisligi boshqa bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham xuddi shu kabi islohotlar o'tkazilishi mumkin. Masalan, har bir guruh uchun alohida rangdagi kiyimlar tanlanishi mumkin. Bundan tashqari, bolalarga konlarni, qazilma boyliklarni izlab topish haqida tasavvur uyg'otish maqsadida turli o'yinlar tashkil etiladi: tuproqning yuzaroq qismiga qandaydir buyumni yashirish va uni mashaqqat bilan topgan bola rag'batlantirilishi muhim. Hatto, kichkintoylarga uni sekin, ohistalik bilan qidirish kerakligi, bo'lmasa zarar yetkazib qo'yish mumkinligi ta'kidlanadi. Bunday mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarni toza havoda chiniqtirish, tuproqda mashq bajarish bilan birga ularda topag'onlik qobiliyatini ham shakllantiradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun alohida ingliz va rus tili xonalarini tashkil etish foydadan xoli emas. U yerda guruhlar navbat bilan mashg'ulot o'tkazishadi. Bolalar barcha innovatsion texnologiya vositalari, o'yinchoqlar, ko'rgazmalar vositasida mashg'ulot olib borsalar, jihozlarga ham shikast yetmaydi, nurlanishning oldi ham olinadi. Muhimi, bunday alohida xonalar bo'ylab yurish bolalarga yaxshi ta'sir qiladi. Ularda ana shunday xonalarga bo'lgan intilish darsga bo'lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo'ladi. Xonaga kirganda bolalar o'zlarini xuddi chet elga tushib qolgandek his qilishlari uchun xona devorlari ham aynan shunday beztiladi. O'yinchoqlar berilganda tarbiyachi har bir o'yinchoqning inglizcha nomini aytib asta sekinlik bilan bolalarga o'rgatishi kerak.

Multifilmlarning inglizcha variantlari qo'yilishi ham til o'rganishni ancha mustahkamlaydi. Binobarin, endigi bo'lajak tarbiyachi pedagog axborot texnologiyalari va chet tillarini yaxshi bilishi ayni muddao hisoblanadi. Aks holda, ingliz tili mashg'ulotlarini aynan tarbiyachi emas, balki maxsus ingliz tili o'qituvchilari olib borsalar samarali natijalarga erishiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar jamiyat va mamalakat taraqqiyoti bilan jadal suratda rivojlanib boradi. Shunday ekan, endilikda juda katta doimiy ish o'rinlariga ega sex hamda fabrikalar yonida kelajakda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bunda uzoqroqda yashaydigan tarbiyalanuvchilarni olib keluvchi alohida avtobuslar tashkil qilish, bunday muassasalarning ish tartibi va dasturlari haqida fikr yuritish ham alohida muammolardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion ta'lim-tarbiyani tashkil etish orqali biz quyidagilarga erishamiz:

- bolalarni xalqimizning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi

va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviyaxloqiy jihatdan tarbiyalash;

- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini must-aqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipova M. ЭПОСА" АЛПОМИШЬ"-ИСТОЧНИК НАРОДНОГО ВОСПИТАНИЯ, ВЕДУЩИЙ ПОКОЛЕНИЕ К СОВЕРШЕНСТВУ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 12. – №. 12.

2. Sharipova M. B., Muslimova L. M. Q. XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1130-1134.

3. Sharipova M. B. Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI //Scientific progress. – 2021. – №. 7.

4. Sharipova M. B. Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR //Scientific progress. – 2021. – №. 7.

5. Sharipova M. B., Marg'Uba Fazliddin Qizi Jomurodova X., IFODASI D. S. M. B. Scientific progress. 2021. № 7 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqdostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-alpomish-dostoni-misolida> (дата обращения: 22.12. 2021).

6. MA'NAVIY Y. A. R. V. A., O'RNI D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloeyevna BuxDU //Maktabgacha ta'lim.

7. Sharipova, Maxbuba Baxshilloeyevna. "Gulasal Shavkat Qizi Farmonova NIKONDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)." *Scientific progress* 7 (2021).

8. Sharipova M. B., Jalolova S. Z. Q. HOZIRGI MAISHIY TURMUSHDA O'Z O'RNIGA TO'LA EGA BO'LGAN MAROSIMLAR ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1114-1119.

9. Шарипова М. Б., Саидова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.

10. Шарипова М. Б., Саидова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье // Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.

11. Vaxshilloyevna S. M. et al. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI // BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 146-152.

12. Шарипова М.Б., Хусаинова З.Х. ВОСПЕВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГЕРОИЧЕСКОМ ЭПОСЕ // Вестник науки и образования. 2021. №16-2 (119). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyh-duhovnyh-tsennostey-v-geroicheskom-epose> (дата обращения: 07.10.2022).

13. Sharipova M. YOSH AVLOD RUHIY VA MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QANRAMONLIK EPOSINING O'RNI: DOI: 10.53885/edinres.2021.17.14.046 Sharipova Maxbuba Vaxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi // Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 116-117.

14. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе // Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).

15. Эргашева Г. Development of teachers innovative activities // Ученый XXI века. – 2018. – №. 4-3.

16. Ergasheva G. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.

17. Ergasheva G. НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕТОДОВ И СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

18. Ergasheva G. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

19. Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education // EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 231-235.

20. Ergasheva G. B. ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI // Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 969-974.

21. Ergasheva G. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

22. Ergasheva G. B., Tohirova S. MUSTAQILLIK NE'MATIGA SHUKRONA QILISH VA UNING MUSTANKAMLIGINI SHAQLASH // Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1196-1200.

23. Izzatilloevna K. D., Tolibovna S. Z. Dependent taxis: Semantic features and methods of expression in English //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 318-321.

24. KHODJAYEVA D. I., SAIDOVA Z. T. THE ORIGIN AND JUSTIFICATION OF THE TERM TAXIS IN LINGUISTICS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 375-379.

25. Izzatilloevna K. D., Tolibovna S. Z. Dependent taxis: Semantic features and methods of expression in English //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 318-321.

26. Tolibovna S. Z. TAXIS AND THE GRAMMATICAL CATEGORY OF TEMPORAL REFERENCE //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 277-280.

27. Tolibovna S. Z. TAXIS AND THE GRAMMATICAL CATEGORY OF TEMPORAL REFERENCE //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 277-280.

28. Izatilloevna K. D., Tolibovna S. Z. Taksis Kategoriyasi: Turli Qarashlar Va Yondashuvlar //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 234-238.

29. Tolibovna S. Z. TAXIS AS A CONCEPTUAL AND FUNCTIONAL-SEMANTIC CATEGORY //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

30. Qo'ldoshev R. ШАРАҚАЙЛИК: МУАММО YOКИ QOBILYAT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

31. Qo'ldoshev R. BOSHLANG'ICH SINF ШАРАҚАЙ O'QUVCHILARGA BERILADIGAN PEDAGOGIK YORDAM VA YOZUVGA O'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

32. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.

33. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ШАРАҚАЙ ўқувчиларни ўзвуга ўргатишнинг ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.

34. G'aforovna, Jumayeva Habiba. "SAVOD O 'RGATISHGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O 'QISH VA YOZUVGA O 'RGATISH." BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI 2.3 (2022): 1-4.

35. Habiba G. BIRINCHI SINF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 983-989.

36. Navrozova, M. G. (2021). XALQONA TIBBIY BIRLIKLARDA MANO KOCHISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1487-1491.

37. Gaybullaevna, N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. JournalNX, 7(06), 169-171.

38. Navruzova M. G. Lexical-semantical features of some medical linguistic units //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 2. – С. 135-142.

39. Gaybullaevna, N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. Middle European Scientific Bulletin, 12, 488-491.